(2) tā bù yě zài 他 不 也 在 → _____

(3) Dàwéi hǎo ma yě 大为 好 吗 也 → _____

4. 汉语的语序 Xitoy tilida so'z tartibi

Xitoy tili grammatikasining asosiy xususiyati jins, vaqt, ko'plik, shaxslar va kelishiklarda o'zgarish yo'q. Grammatik kategoriyalarni ifodalashda so'z tartibi o'ta muhim rol o'ynaydi. Xitoy tili so'z tartibi,

odatda quyidagicha ega oldinda, daraklovchining qismi, ya'ni subyekt ham deyish mumkin; kesim undan keyin, darak qismidir. Masalan:

| Ega | Kesim |
|---------|--------------------|
| Wǒ 我 | hěn máng. 很 忙。 |
| Tā 他 | xìng Sòng. 姓 宋。 |

四、练习与运用 Amaliy mashg'ulotlar

补充词语 Qo'shimcha so'zlar



2-01-06

- | | | | |
|-------------|------|----|--|
| 1. kùn | 困 | S | toliqish 很困 不困 不太困 |
| 2. kě | 渴 | S | chanqamoq 很渴 不渴 不太渴 |
| 3. è | 饿 | S | och qolmoq 很饿 不饿 不太饿 |
| 4. lèi | 累 | S | charchamoq 很累 不累 不太累 |
| 5. hái xíng | 还行 | | bo'ladi (hol-ahvolga nisbatan) |
| 6. mǎmǎhūhū | 马马虎虎 | S | bo'ladi, yomon emas (hol-ahvolga nisbatan) |
| 7. tā | 她 | OI | u (ayol kishi uchun) |

1 语音练习 Fonetik mashq



2-01-07

Eshiting va o'qing: Quyida berilgan so'zlarni pinyinini yozing va ohang belgisini qo'ying, so'ngra baland ovozda o'qing.

- | | | |
|--------------------------|--------------|-------------------|
| ① laoshi | ② hen ke | ③ qingwen |
| ④ hen mang | ⑤ bu mang | ⑥ bu e |
| ⑦ bu ke | ⑧ bu gaoxing | ⑨ Wo bu tai mang. |
| ⑩ Renshi ni hen gaoxing. | | |

2 会话练习 Suhbat (dialog) mashqlari


Ikki kishilik suhbat: Rasmdagi odamlarning ko‘rinishi hamda vaziyatiga asoslanib, dialogni davom ettiring.

1. So‘rashmoq

(1)



(2)



2. Ilk bor ko‘rishuv

(1)



(2)



Qǐngwèn, nǐ jiào shénme míngzi? / Rènshi nǐ hěn gāoxìng.
(请问, 你叫什么名字? / 认识你很高兴。)

3. So‘rashmoq

(1)



Nǐ hǎo ma?
(你好吗?)

(2)



Nǐ zuìjìn zěnmeyàng?
(你最近怎么样?)

4. Sen qalaysan? / U qalay?



3 听后复述 Tinglang va gapirib bering



2-01-08

Tinglang va gapiring.

Nǐ hǎo ma?

(1) A: 你好吗?

Wǒ hěn hǎo. Nǐ ne?

B: 我很好。你呢?

Wǒ yě hěn hǎo.

A: 我也很好。

Nǐ zuìjìn máng ma?

(2) A: 你最近忙吗?

Wǒ hěn máng. Nǐ ne?

B: 我很忙。你呢?

Hái xíng.

A: 还行。

Qǐngwèn, nǐ jiào shénme míngzi?

(3) A: 请问，你叫什么名字?

Wǒ xìng Lín, jiào Lín Nà. Nǐ ne?

B: 我姓林，叫林娜。你呢?

Wǒ jiào Sòng Huá. Rènshi nǐ hěn gāoxìng.

A: 我叫宋华。认识你很高兴。

Rènshi nǐ wǒ yě hěn gāoxìng.

B: 认识你我也很高兴。

4 阅读理解 O'qib tushunib oling



Tā jiào Mǎ Dàwéi, tā jiào Dīng Lìbō, tā jiào Lín Nà.

他叫马大为，他叫丁力波，她叫林娜。

Dàwéi hěn hǎo, Dīng Lìbō hěn máng, Lín Nà bú tài máng, tā yě hěn hǎo.

大为很好，丁力波很忙，林娜不太忙，她也很好。

Quyidagi savollarga javob bering:

Mǎ Dàwéi hǎo ma?

(1) 马大为好吗?

Lín Nà zěnmeyàng?

(2) 林娜怎么样?

Dīng Lìbō máng ma?

(3) 丁力波忙吗?



Tā jiào Chéng Lóng, tā jiào Gǒng Lì. Chéng Lóng hěn máng, Gǒng Lì yě hěn máng.
他叫 成 龙, 她叫 巩 俐。成 龙 很 忙, 巩 俐 也 很 忙。

Yáo Míng zěnmeyàng? Yáo Míng yě hěn máng.
姚 明 怎 么 样? 姚 明 也 很 忙。

Tā jiào shénme míngzi? Tā jiào Mǎ Yún. Mǎ Yún máng ma? Mǎ Yún hěn máng.
他 叫 什 么 名 字? 他 叫 马 云。马 云 忙 吗? 马 云 很 忙。

Quyidagi savollarga javob bering:

Tāmen jiào shénme míngzi?
(1) 他们 叫 什 么 名 字?

Tāmen zěnmeyàng?
(2) 他们 怎 么 样?

5 任务与活动 Vazifa va faoliyat

Guruh bo‘lib ishlash: Guruhingizda 3-5ta o‘quvchilarning ismini so‘rang, oddiy so‘zlar bilan hol-ahvol so‘rab, bu haqda boshqa o‘quvchilarga ma’lumot bering.

| Raqamlar | Ism sharifi | Qanday ekanligi |
|----------|-------------|-----------------|
| 1. | | |
| 2. | | |
| 3. | | |
| 4. | | |
| 5. | | |

Yordamchi so‘z bo‘lishi mumkin:

zěnmeyàng jiào rènshi máng hǎo
怎么样 叫 认识 忙 好

6 写作练习 Insho yozish mashqi

Xitoy tili o'qituvchingizdan sizga xitoycha ism topib berishini iltimos qiling va quyida berilgan namunaga qarab o'zingizning vizitkangizni yozing.



五、汉字 Iyerogliflar

1 汉字知识 Iyerogliflarga oid bilimlar

1. Iyeroglif kalitlari

Hozirgi zamon xitoy tili iyerogliflari iyeroglif chiziqlari, kalitlari va asosiy qismdan iborat. Masalan, “mù 木 (daraxt)” iyeroglifi “一”, “丨”, “丿”, “㇇” to'rtta chiziqlaridan tashkil topgan, u bitta asosiy (oddiy) iyeroglif sanaladi, hamda iyeroglif kaliti ham hisoblanadi. Masalan, “lín 林 (o'rmon)” iyeroglifi ikkita “木” iyeroglifidan iborat. Iyeroglif kalitlari 2 xil, masalan, “yuàn 院” iyeroglifi, uchta “阝”, “宀”, “元” iyeroglif kalitlaridan tashkil topgan, faqatgina “yuán 元”, “阝”, “宀” esa. Iyeroglif kalitlarini yaxshi o'zlashtirish iyeroglifni yaxshi yod olishga yordam beradi.

2. Xitoy tili iyerogliflarini ohang bilan bog'liqligi

Xitoy tili iyerogliflarining ohang kombinatsiyasi turli ma'nolarga egadir. Xuddi shu chiziqalarda turli kombinatsiyalar va turli xil ma'nolar mavjud. Chiziqlarni birlashtirishning uchta usuli bor:

(1) Chiziqlarni ajratish munosabatlari, masalan:

bā 八 (sakkiz), ér 儿 (o'g'il), èr 二 (ikki), xiǎo 小 (kichkina)

(2) Chiziqlarni qismlarga bo'lish munosabati, masalan:

shí 十 (o'n), dà 大 (katta), jiǔ 九 (to'qqiz), fū 夫 (turmush o'rtoq)

(3) Chiziqlarni qo'shilish munosabati, masalan:

chǎng 厂 (zavod), Dīng 丁 (Ding), rén 人 (odam), shān 山 (tog')

3. Xitoy tilining qo'shimcha chiziq-lari (2)

| Chiziq-larning ko'rinishi | Nomi | Misollar | Yozilish qoidasi |
|---------------------------|----------------|---------------------------------------|---|
| フ [フ] | héngpiě | 又 yòu (takroran) | Masalan, “又” iyeroglifning birinchi chizig'i |
| 厶 [厶] | piězhé | 么 me (nima so'zidagi ikkinchi chiziq) | Masalan, “么” iyeroglifning ikkinchi chizig'i |
| レ [レ] | shùtí | 以 yǐ (ishlatish, olish) | Masalan, “以” iyeroglifning birinchi chizig'i |
| 丨 [丨] | shùgōu | 你 nǐ (sen) | Masalan, “你” iyeroglifning beshinchi chizig'i |
| 冫 [冫] | héngzhégōu | 问 wèn (so'ramoq) | Masalan “问” iyeroglifning uchinchi chizig'i |
| 讠 [讠] | héngzhétí | 认 rèn (tanimoq) | Masalan, “认” iyeroglifning ikkinchi chizig'i |
| 辶 [辶] | héngzhé-zhépiě | 近 jìn (yaqin) | Masalan, “近” iyeroglifning oltinchi chizig'i |

Quyidagi berilgan iyerogliflar necha chiziqdan iborat ekanligini sanang va chamalab yozib ko'ring.



yǒng (abadiy; hech qachon)

2 汉字偏旁 Iyerogliflarning yon kalitlari

| Iyeroglif kaliti | Nomi | Chiziq-larining yozilish ketma-ketligi | Chiziq-lar soni | Misollar | Tushuntirish |
|------------------|------------|--|-----------------|--------------------------------------|---|
| 亻 | dānrénpáng | 丿 亻 | 2 | 你 nǐ (sen) 什 shén (nima) | Odatda “odam, kimdur” kabi so'zlarga aloqador |
| 讠 | yánzìpáng | 丶 讠 | 2 | 认 rèn (tanimoq) 识 shí (tanimoq) | Odatda “tanimoq, bilmoq” kabi so'zlarga aloqador |
| 木 | mùzìpáng | 一 十 才 木 | 4 | 林 lín (o'rmon) 样 yàng (ko'rinish) | Odatda “daraxt o'simliklar” kabi so'zlarga aloqador |
| 辶 | zǒuzhīdǐ | 丶 辶 辶 | 3 | 进 jìn (kirmoq) 近 jìn (yaqin) | Odatda “harakatlanish aylanish” kabi so'zlarga aloqador |

3 认写基本汉字 Asosiy iyerogliflarning yozilishi

- (1) 力 丿 力
lì kuch 2 chiziq  
- (2) 生 丿 乚 乚 牛 生
shēng tug'moq, tug'ilmoq 5 chiziq  
- (3) 言 丶 一 二 三 言 言 言
yán til 7 chiziq  
- (4) 人 丿 人
rén odam 2 chiziq  
- (5) 木 一 十 才 木
mù daraxt 4 chiziq  
- (6) 羊 丶 丩 𠂆 𠂆 𠂆 羊
yáng qo'y 6 chiziq  
- (7) 井 一 二 井 井
jǐng quduq 4 chiziq  
- (8) 土 一 十 土
tǔ yer 3 chiziq  

4 认写课文中的汉字 Matndagi iyerogliflarning yozilishi

- (1) 叫 jiào
叫 → 口 + 丩 (丩: 丿 丩)
5 chiziq
- (2) 姓 xìng
姓 → 女 + 生 (生: 丿 乚 乚 牛 生)
8 chiziq

(3) 什么 shénme

么 → 丿 + 么

3 chiziq

(4) 名字 míngzi

名 → 夕(夕: 丿 夕夕) + 口

6 chiziq

(5) 最近 zuìjìn

最 → 日(日: 丨 口 日 日) + 耳(耳: 一 丨 丨 丨 耳) + 又 12 chiziq

近 → 斤(斤: 一 丨 斤 斤) + 辶 7 chiziq

(6) 认识 rènshi

认 → 讠 + 人 4 chiziq

识 → 讠 + 只(只: 丨 丨 口 尸 只) 7 chiziq

(7) 怎么样 zěnmeyàng

样 → 木 + 羊 10 chiziq

(8) 林 lín

林 → 木 + 木 8 chiziq

(9) 进 jìn

进 → 井 + 辶 7 chiziq

(10) 坐 zuò

坐 → 人 + 人 + 土 7 chiziq

六、文化知识 Madaniyatga oid bilimlar

Iyerogliflar va soddalashtirilgan iyerogliflar

Iyerogliflar dunyodagi qadimgi yozuvlardan hisoblanib, odatda har bir iyeroglif o'z oldiga bir so'z ham bolib keladi. Xitoy tilida ko'p qo'llaniladigan iyerogliflar 50000dan ziyodroq bo'lib, asosan, 5000-8000ta iyerogliflar ko'p ishlatiladi. Kundalik hayotimizda esa 3000tasi diomiy ravishda qo'llaniladi. Xitoy tilidagi iyerogliflarning fonetik xilma-xilligi ideogramma deb nomlanib, dunyoda bugungi kungacha qo'llanib kelinmoqda. Zamonaviy xitoy iyerogliflari qadimgi iyerogliflar asosida kelib chiqqan bo'lib, u ko'pgina murakkab so'zlardan tashkil topgan.



Iyerogliflarni tez yozish maqsadida, ikki ming yil mobaynida insonlar ularni soddalashtirish haqida ko'p izlanishlar olib borganlar. Soddalashtirilgan xitoy iyerogliflari ikki asosiy yo'nalishga ega, birinchisi iyeroglif belgilari qisqartirilgan bo'lsa, ikkinchisi ulardagi imlo chiziqlarning qisqarganligi bilan bo'g'liq. An'anaviy xitoy tilidagi iyerogliflar bugungi kunda "fántǐzì 繁体字 (murakkab iyeroglif)" deb ataladi. Murakkab iyeroglif asosan, xitoy adabiyotida ko'p qo'llanilgan bo'lasda, bugungi kunda zamonaviy xitoy tilida qo'llanilayotagan iyerogliflar "jiǎntǐzì 简体字 (soddalashtirilgan iyeroglif)" deb yuritiladi. Ularni o'qish, yo'zish, yodda saqlash juda ham osondir. Biz ularni solishtirib ko'ramiz:

- mā 妈 / 媽 (soddalashtirilgan iyeroglif/murakkab iyeroglif)
mén 门 / 門 (soddalashtirilgan iyeroglif/murakkab iyeroglif)

七、自我评估 O'z-o'zini baholash

Men xitoy tilida quyidagi ishlarni qila olaman:

- Men xitoy tilida tanigan va tanimagan odamlar bilan salomlasha olaman.
- Men odamlarning ismi sharifini so'rashni va o'zimni tanishtirishni o'rgandim.
- Men ilk bor ko'rib turgan odam bilan qanday gaplashishni bilaman.
- Men tanish odamlarga salom ayta olaman.



趣味汉语 Qiziqarli xitoy tili

Jonivorlarning ovozini taqlid qilib qo‘ring

Siz xitoy tilida hayvonlarning taqlid so‘zlari qanday bo‘lishini bilasizmi?

- Xiǎoyáng: Miē miē miē, nǐmen hǎo, wǒ shì xiǎoyáng, wǒ hěn gāoxìng.
1. 小羊: 咩咩咩, 你们好, 我是小羊, 我很高兴。
- Xiǎogǒu: Wāng wāng wāng, nǐmen hǎo, wǒ shì xiǎogǒu, wǒ yě hěn gāoxìng.
2. 小狗: 汪汪汪, 你们好, 我是小狗, 我也很高兴。
- Xiǎomìfēng: Wēng wēng wēng, nǐmen hǎo, wǒ shì xiǎomìfēng, wǒ hěn máng.
3. 小蜜蜂: 嗡嗡嗡, 你们好, 我是小蜜蜂, 我很忙。
- Xiǎonǎiniú: Mōu mōu mōu, nǐmen hǎo, wǒ shì xiǎonǎiniú, wǒ yě hěn máng.
4. 小奶牛: 哞哞哞, 你们好, 我是小奶牛, 我也很忙。
- Xiǎomāo: Miāo miāo miāo, nǐmen hǎo, wǒ shì xiǎomāo, wǒ hěn kùn.
5. 小猫: 喵喵喵, 你们好, 我是小猫, 我很困。
- Xiǎolù: Yōu yōu yōu, nǐmen hǎo, wǒ shì xiǎolù, wǒ yě hěn kùn.
6. 小鹿: 呦呦呦, 你们好, 我是小鹿, 我也很困。
- (1) Qo‘zichoq: mie-mie-mie, salom, men qo‘zichoqman, men juda xursandman.
(2) Kuchukcha: wang-wang-wang, salom, men kuchukchaman, men ham juda xursandman.
(3) Asalaricha: weng-weng-weng, salom, men asalarichaman, men juda bandman.
(4) Buzoqcha: mou-mou-mou, salom, men buzoqchaman, men ham juda bandman.
(5) Mushukcha: miao-miao-miao, salom, men mushukchaman, meni juda uyqum kelyapti.
(6) Kichkina kiyik: uvang-uvang-uvang, salom, men kichkina kiyikman, mening ham juda uyqum kelyapti.

2

Nǐ shì nǎ guó rén

你是哪国人

Siz qaysi mamlakatdانسiz

Ushbu darsda siz boshqa insonga qanday qilib do'stingizni tanishtirishni, qaysi davlatdan ekanligini so'rashni, salomlashishning yana boshqa bir ko'rinishini va yana boshqa ism so'rashning muloyim ko'rinishini o'rganasiz. Keyin Ma Dawei va Wang Xiaoyun bilan tez tayyorlanadigan ovqatlar ko'chasini aylanib, xitoyliklar yoqtiradigan ovqatlardan ta'tib ko'rishingiz mumkin.

一、热身 *Dastlabki mashqlar*

1 思考 *Mulohaza qilmoq*

Quyidagi savollar yuzasidan fikr yuriting:

- (1) Siz davlatingizni nomini xitoy tilida qanday aytilishini bilasizmi?
- (2) Siz yana boshqa davlatlarning nomini ham xitoy tilida ayta olasizmi?
- (3) Sizning davlatingizda odamlar bir-biri bilan qanday salomlashadilar? Qanday xayrlashadilar?

2 活动 *Faoliyat*

Quyida berilgan rasmdagi taomlarning qaysi birilari xitoyliklar odatda yeydigan taomlar ekanligini toping. Siz bu taomlarni xitoycha nomlanishini bilasizmi?



二、课文 Matn

(一)  2-02-01



(Ding Libo va Ma Dawei universitet hovlisida ustoz Chenni uchratib qoldilar, ustoz Chen va Ma Dawei bir-birini tanimaydi.)

Dīng Lìbō: Lǎoshī, zǎoshang hǎo! ①
丁力波: 老师, 早上好!

问好

Salomlashish

Chén lǎoshī: Nǐmen hǎo!
陈老师: 你们好!

Dīng Lìbō: Zhè shì Mǎ Dàwéi, ② tā shì wǒ péngyou,
丁力波: 这是马大为, 他是我朋友,
gāng dào Běijīng. ③
刚到北京。

介绍他人

Kimnidir tanishtirish

Mǎ Dàwéi: Nín hǎo! ④ Lǎoshī, nín guìxìng?
马大为: 您好! 老师, 您贵姓?

问姓氏

Familiyasini so'rash

Chén lǎoshī: Wǒ xìng Chén. ⑤ Nǐ shì nǎ guó rén? ⑥
陈老师: 我姓陈。 你是哪国人?

问国籍
Qaysi davlatdan ekanligini
so'rash

Mǎ Dàwéi: Wǒ shì Měiguó rén. ⑦ Wǒ yě xuéxí Hànyǔ. Chén lǎoshī, ⑧
马大为: 我是美国人。 我也学习汉语。 陈老师,
rènshi nín hěn gāoxìng.
认识您很高兴。

Chén lǎoshī: Rènshi nǐ wǒ yě hěn gāoxìng.
陈老师: 认识你我也很高兴。

Mǎ Dàwéi: Lǎoshī, zàijiàn!
马大为: 老师, 再见!

告别
Xayrlashish

Chén lǎoshī: Zàijiàn!
陈老师: 再见!

生词 Yangi so'zlar



2-02-02

| | | | |
|-------------|----|----|--|
| 1. lǎoshī | 老师 | O | ustoz, o'qituvchi 老师好 |
| 2. zǎoshang | 早上 | O | ertalab 早上好 |
| zǎo | 早 | S | erta 很早 你早 |
| 3. nǐmen | 你们 | OI | sizlar 你们好 |
| men | 们 | SQ | "...lar" ko'plik qo'shimchasi (faqat jonli narsalar uchun) 我们 他们 |
| 4. zhè | 这 | OI | bu |
| 5. shì | 是 | F | bo'lmoq fe'li 这是宋华 |
| 6. péngyou | 朋友 | O | do'st 我朋友 这是我朋友 |
| 7. gāng | 刚 | R | endi, xozir 刚认识 |
| 8. dào | 到 | F | yetib olmoq, kelmoq 刚到 |
| 9. nín | 您 | OI | siz 您好 |
| 10. guìxìng | 贵姓 | O | familiyangiz nima 您贵姓 |

| | | | |
|-------------|----|----|---------------------------|
| 11. nǎ | 哪 | SO | qaysi |
| 12. guó | 国 | O | davlat |
| 13. rén | 人 | O | odam 哪国人 |
| 14. xuéxí | 学习 | F | o‘qimoq, o‘rganmoq 学习什么 |
| xué | 学 | F | o‘qimoq, o‘rganmoq |
| 15. Hànyǔ | 汉语 | O | xitoy tili 学习汉语 |
| 16. zàijiàn | 再见 | F | xayr, ko‘rishguncha |
| 17. Chén | 陈 | AO | Chen (familiya) |
| 18. Běijīng | 北京 | AO | Pekin |
| 19. Měiguó | 美国 | AO | Amerika Qo‘shma Shtatlari |

注释 Izohlar

① Zǎoshang hǎo!

Xayrli tong!

Ertalabki soat to‘qqizdan oldin yoki yanada barvaqtroq ko‘rishib so‘rashganda ishlatiladigan so‘z. Shuningdek, “zǎo早” deb aytish ham mumkin. Bunga javoban, “nǐ hǎo你好” yoki odatdagidek javob berish mumkin.

② Zhè shì Mǎ Dàwéi.

Bu Ma Dawei.

Birovni tanishtirish paytida odatda “Zhè shì 这是……” qo‘llaniladi. Bu yerda “是” yengil ohangda o‘qiladi.

③ Tā shì wǒ péngyou, gāng dào Běijīng.

U mening do‘stim, endigina Pekinga keldi.

“我朋友” Mening do‘stim, “我爸爸” Mening dadam, “你妈妈” Sening oying.

“gāng dào Běijīng 刚到北京” ushbu gapning egasi “tā 他” tushirib qoldirilgan. Xitoy tili og‘zaki nutqida gapning egasi avvalgi gaplarga qo‘yilgan bo‘lsa, gap kim haqida ekanligi ma’lum bo‘lsa, keyingi gaplarda ega tushirib qoldirilishi mumkin.

④ Nín hǎo!

Assalomu alaykum!

“nín您”, “nǐ你” ning hurmat yuzasidan qo‘llaniladigan shakli, ya’ni siz degani, ko‘pincha yoshi qari insonlarga nisbatan qo‘llaniladi, ba’zida hurmatni bildirganda teng yoshlilar orasida ham qo‘llaniladi. Pekinliklar shu so‘zni qo‘llashni yoqtiradilar.

⑤ Nín guìxìng?

Wǒ xìng Chén.

Familiyangiz nima?

Mening familiyam Chen.

Bu ibora biror shaxsdan muloyim shaklda familiyani so‘rash uchun qo‘llaniladi. E’tibor berish kerakki, javob berayotganda “*Wǒ guì xìng 我贵姓……” deyish mumkin emas, “Wǒ xìng 我姓……” deyish kerak. Bundan tashqari “贵” faqatgina “你” yoki “您” bilan qo‘llaniladi, “我” yoki “tā 他/她” lar bilan qo‘llash umuman mumkin emas.

⑥ Nǐ shì nǎ guó rén?

Siz qaysi mamlakatdانسiz?

⑦ Wǒ shì Měiguó rén.

Men Amerikalikman.

Biror davlat nomidan so‘ng “rén 人” iyeroglifi qo‘shilsa bir insonning qayerlik ekani aytiladi.

Měiguó 美国—— Měiguó rén 美国人

Biror joy nomidan keyin “人” so‘zi qo‘yilsa, “...lik” yoki “o‘sha yerda tug‘ilgan” ma’nolarini anglatadi.

Běijīng 北京—— Běijīng rén 北京人

⑧ Chén lǎoshī

Ustoz Chen

Xitoyda insonlar o‘rtasidagi murojat va muomala jaryonida, rahbarlarga, o‘qituvchilarga, familiyalarini orqali murojat qiladilar. Bu har doim boshqa insonlarga hurmat yuzasidan murojat ma’nosini anglatadi. Xitoyda keng tarqalgan familiyalardan “Chen, Wang” familiyalar hisoblanadi. Masalan: Ustoz Chen, Ustoz Wang, Xitoyda talabalar ustozlari ismlarini aytib chaqirmaydilar, bu ustozlarga nisbatan hurmatsizlikni bildiradi.

(二)  2-02-03



(Wang Xiaoyun Ma Dawei bilan tez tayyorlanadigan ovqatlar ko'chasiga aylanishga bordi.)

Mǎ Dàwéi: Xiǎoyún, zhè shì shénme?
马大为: 小云, 这是什么?

指认物品
Mahsulotlar bilan
tanishmoq

Wáng Xiǎoyún: Zhè shì diǎnxin.
王小云: 这是点心。

Mǎ Dàwéi: Diǎnxin hǎochī ma?
马大为: 点心好吃吗?

Wáng Xiǎoyún: Hǎochī. Wǒ bàba shì Shànghǎirén, tā xǐhuan chī diǎnxin
王小云: 好吃。我爸爸是上海人, 他喜欢吃点心

hé mǐfàn. ①
和米饭。

Mǎ Dàwéi: Běijīngrén xǐhuan chī shénme?
马大为: 北京人喜欢吃 什么?

问喜好
Yoqtirgan narsalari
haqida so'rash

Wáng Xiǎoyún: Wǒ māma shì Běijīngrén, tā xǐhuan chī miàntiáor hé jiǎozi.
王小云: 我妈妈是北京人, 她喜欢吃面条儿和饺子。

Mǎ Dàwéi: Zhè shì jiǎozi ma?
马大为: 这是饺子吗?

Wáng Xiǎoyún: Zhè bú shì jiǎozi, shì bāozi. Bāozi dà, jiǎozi xiǎo. ②
王小云: 这不是饺子, 是包子。包子大, 饺子小。

Nǐ kàn, nà shì jiǎozi.
你看, 那是饺子。

Mǎ Dàwéi: Bāozi hǎochī ma?
马大为: 包子好吃吗?

Wáng Xiǎoyún: Bāozi hé jiǎozi dōu hěn hǎochī.
王小云: 包子和饺子都很好吃。

Mǎ Dàwéi: Hǎo, wǒ yào jiǎozi, yě yào bāozi. ③
马大为: 好, 我要饺子, 也要包子。

生词 Yangi so'zlar



2-02-04

| | | | |
|--------------|-----|----|--------------------------------------|
| 1. diǎnxin | 点心 | O | shirinlik |
| 2. hǎochī | 好吃 | S | mazzali 很好吃 不好吃 |
| chī | 吃 | F | yemoq 吃点心 |
| 3. bàba | 爸爸 | O | dada 我爸爸 你爸爸 爸爸很忙 |
| 4. xǐhuan | 喜欢 | F | yoqtirmoq, yaxshi ko'rmoq 喜欢点心 喜欢吃点心 |
| 5. hé | 和 | B | va 我和你 爸爸和妈妈 |
| 6. mǐfàn | 米饭 | O | guruchli taom 吃米饭 米饭和点心 喜欢吃米饭 |
| fàn | 饭 | O | ovqat 吃饭 |
| 7. māma | 妈妈 | O | oyi 我妈妈 妈妈喜欢 |
| 8. tā | 她 | OI | u (ayol kishi uchun) 她朋友 她妈妈 |
| 9. miàntiáor | 面条儿 | O | lag'mon 吃面条儿 喜欢吃面条儿 |
| 10. jiǎozi | 饺子 | O | chuchvara 吃饺子 喜欢吃饺子 饺子很好吃 |
| 11. bāozi | 包子 | O | somsa 吃包子 不喜欢吃包子 |

| | | | |
|------------------|-----|----|----------------------|
| 12. dà | 大 | S | katta 大包子 很大 |
| 13. xiǎo | 小 | S | kichkina 小点心 小饺子 很小 |
| 14. kàn | 看 | F | qara (qarang) 你看 看什么 |
| 15. nà | 那 | OI | anavi 那是面条儿 那是我爸爸 |
| 16. dōu | 都 | R | hamma 都很好 都很好吃 |
| 17. yào | 要 | F | kerak 要包子 不要饺子 我也要 |
| 18. Shànghǎi | 上海 | AO | Shanghai |
| 19. Wáng Xiǎoyún | 王小云 | AO | Wang Xiaoyun |

注释 Izohlar

① Tā xǐhuan chī diǎnxin hé mǐfàn.

U shirinlik va guruch yeyishni yaxshi ko'radi.

Xitoy tilida “tā” uchinchi shaxs kishilik olmoshini ifodalovchi ikki iyeroglif bo'lib, “他” erkakka nisbatan; “她” ayolga nisbatan ishlatiladigan kishilik olmoshlaridir.

② Bāozi dà, jiǎozi xiǎo.

Somsa katta, chuchvara kichik.

Kesimli sifat bilan ifodalangan gaplarda, kesimdan oldin “hěn 很” juda ravishi qo'yilmaydi, bunday gaplar qiyoslash ma'nosini ifodalaydi. Mazkur gap somsa va chuchvaraning o'lchami katta-kichikligi haqida.

③ Hǎo, wǒ yào jiǎozi, yě yào bāozi.

Yaxshi, men chuchvara hamda somsa xohlayman.

Bu yerda “hǎo 好” so'zi rozi ekanligini, suhbatni nihoyasiga yetganligini yoki suhbat mazmunini qo'llab quvvatlashini ifodalaydi.

“yào 要” ma'nolarini anglatib, o'zining talab va ehtiyojini bildiradi, do'konda xarid qilishda, restoranda ovqat buyurganda “Wǒ yào 我要……” yoki “men... xohlayman” deyiladi. Do'kondagi sotuvchi yoki restorandagi ofitsiantlar odatda “Nín yào shénme? 您要什么?” tarzida mijozdan uning ehtiyojini so'raydilar.

三、语言点 Tayanch so'zlar

1 核心句 Asosiy qo'llanilgan jumlarlar



2-02-05

- | | |
|---|------------------------------------|
| 1. Zhè shì Mǎ Dàwéi, tā shì wǒ péngyou. | 6. Zhè shì jiǎozi ma? |
| 2. Nín guìxìng? | 7. Zhè bú shì jiǎozi, shì bāozi. |
| 3. Nǐ shì nǎ guó rén? | 8. Nà shì jiǎozi. |
| 4. Wǒ māma shì Běijīngrén. | 9. Bāozi hé jiǎozi dōu hěn hǎochī. |
| 5. Zhè shì shénme? | |



2 语法 Grammatika

1. “是”字句(1) “shì是”li gaplar(1)

“是”li gaplarda, fe'l o'rniida “是” va undan keyingi qism bilan bog'lanib ishlatiladi, u ot, olmosh yoki ismiy birikma bo'lishi mumkin. Uning bo'lishsiz shakli “是” oldin “bù不” inkorligi qo'yilishi bilan vujudga keladi. Agarda kuchaytirishni izhor etish zarur bo'lmasa, “是” odatda yengil o'qiladi.

| Ega | Kesim | | | |
|----------|---------|----------|----------------------|----------------|
| | Ravish | 是 | Ot/Ismiy birikma | Yordamchi so'z |
| Zhè 这 | | shì 是 | Mǎ Dàwéi. 马大为。 | |
| Nà 那 | bú 不 | shì 是 | jiǎozi. 饺子。 | |
| Tā 他 | bú 不 | shì 是 | Chén lǎoshī. 陈老师。 | |
| Nǐ 你 | yě 也 | shì 是 | Shànghǎirén 上海人 | ma? 吗? |

E'tibor bering:

“不” inkorlik ravishini “是” dan oldin qo'yish kerak.

1-mashq Namunaga qarab, quyida berilgan gaplarni inkor va so'roq shakliga o'zgartiring.

Zhè shì jiǎozi. Zhè bú shì jiǎozi. Zhè shì jiǎozi ma?

Masalan 这是饺子。→这不是饺子。→这是饺子吗?

Zhè shì miàntiáor.

(1) 这是面条儿。 → _____。 → _____?

Nà shì bāozi.

(2) 那是包子。 → _____。 → _____?

Tā shì Běijīng rén.

(3) 他是北京人。 → _____。 → _____?

Wǒ shì Shànghǎi rén.

(4) 我是上海人。 → _____。 → _____?

2-mashq So'zlarni o'zaro almashtirib, suhbatni nihoyasiga yetkazing.

Nà shì shéi?

(1) A: 那是谁 (kim)?

Nà shì

B: 那是_____。

wǒ péngyou

我朋友

wǒmen lǎoshī

我们老师

Mǎ Dàwéi

马大为

Tā shì nǎ guó rén?

(2) A: 他是哪国人?

Tā shì

B: 他是_____人。

Zhōngguó

中国 (Xitoy)

Měiguó

美国

2. 用疑问代词的问句 (1): 什么、哪 So'roq olmoshli so'roq gaplar (1): "shénme 什么", "nǎ 哪"

Xitoy tilida so'roq olmoshli gaplardagi tartib va darak gapdagi tartib bir xil. Bunday gaplarda, so'roq olmoshlarni joyi va darak gapdagi tegishli gap bo'lagi bilan bir xildir.

| Darak gap | So'roq gap |
|--------------------------|--------------------------|
| Zhè shì jiǎozi. 这是饺子。 | Zhè shì shénme? 这是什么? |

| Darak gap | So'roq gap |
|--|--|
| Běijīngrén xǐhuan chī miàntiáor hé jiǎozi. 北京人 喜欢吃 面条儿 和 饺子。→ | Běijīngrén xǐhuan chī shénme? 北京人 喜欢吃 什么? |
| Tā shì Měiguórén. 他是 美国人。→ | Tā shì nǎ guó rén? 他是 哪 国 人? |

1-mashq Namunaga qarab, quyida berilgan darak gaplarni so'roq gaplarga o'zgartiring.

Masalan Zhè shì bāozi. Zhè shì shénme?
这是包子。→ 这是什么?

- Nà shì mǐfàn.
(1) 那是米饭。→ _____ ?
- Tā shì Měiguórén.
(2) 他是美国人。→ _____ ?
- Wáng Xiǎoyún xǐhuan chī mǐfàn.
(3) 王 小云 喜欢吃米饭。→ _____ ?
- Mǎ Dàwéi xuéxí Hànyǔ.
(4) 马大为 学习 汉语。→ _____ ?

2-mashq Suhbatni nihoyasiga yetkazing.

(1) A: _____ ?

Zhè shì miàntiáor.
B: 这是面条儿。

A: _____ ?

Nà shì diǎnxīn.
B: 那是点心。

A: _____ ?

Shànghǎirén xǐhuan chī diǎnxīn
B: 上海人 喜欢吃 点心
和米饭。

(2) A: _____ ?

Tā shì Měiguórén.
B: 她是美国人。

A: _____ ?

Tā xuéxí Hànyǔ.
B: 她学习汉语。

3. 连词 “和” “hé 和” bog'lovchisi

Bog'lovchi “和” odatda olmosh, ot yoki ismiy birikmalarni bog'lash uchun ishlatiladi, masalan “tā hé tā 她和他”, “bàba hé māma 爸爸和妈妈”, “wǒ māma hé nǐ māma 我妈妈和你妈妈”. “和” ikkita gapni bog'lash uchun ishlatilmaydi, ikkita fe'l va sifatlarni ham bog'lash uchun kamdan-kam ishlatiladi.

1-mashq Jumladagi gapni qavs ichidagi so'zlar yordamida yakunlang.

Masalan Bāozi hé jiǎozi dōu hěn hǎochī. bāozi, jiǎozi
包子和饺子都很好吃。(包子, 饺子)

(1) _____ dōu hěn máng. Wáng Xiǎoyún, Sòng Huá
都很忙。(王 小云, 宋 华)

(2) _____ dōu hěn hǎochī. miàntiáor, diǎnxin
都很好吃。(面条儿, 点心)

(3) Wǒ xǐhuan chī _____ bāozi, jiǎozi
我喜欢吃 _____。(包子, 饺子)

(4) _____ dōu xuéxí Hànyǔ. Lín Nà, Dīng Lìbō
都学习汉语。(林娜, 丁力波)

(5) _____ zuìjìn zěnmeyàng? nǐ bàba, nǐ māma
最近怎么样?(你爸爸, 你妈妈)

2-mashq Quyda ko'rsating jumlar to'g'ri yoki noto'g'riligini ayting.

Mǐfàn hé diǎnxin dōu hěn hǎochī.
(1) 米饭和点心都很好吃。 ()

Wǒ shì Běijīngrén, hé wǒ xǐhuan chī jiǎozi.
(2) 我是北京人, 和我喜欢吃饺子。 ()

Wǒ hěn hǎo hé bú tài máng.
(3) 我很好和不太忙。 ()

Chén lǎoshī hé Wáng lǎoshī zuìjìn zěnmeyàng?
(4) 陈老师和王老师最近怎么样? ()

Wǒ bàba shì Shànghǎirén, hé wǒ māma shì Běijīngrén.
(5) 我爸爸是上海人, 和我妈妈是北京人。 ()

4. 副词 “都” 的位置 “dōu 都” ravishining gapdagi o'rni

“都” va “yě 也” ravishlari gapda egadan keyin, fe'l yoki sifat bilan ifodalangan kesimdan oldin qo'yiladi. Masalan, “Bāozi hé jiǎozi dōu hěn hǎochī. 包子和饺子都很好吃。” kabi. “*Dōu bāozi hé

jiǎozi hěn hǎochī. 都包子和饺子很好吃。” tarzida tuzilgan gap noto‘g‘ri hisoblanadi. “都” va “也” ravishlari bir gapda kelsa, avval “也”, so‘ngra “都” ravishi qo‘yiladi. Masalan: “Wǒ bàba hé wǒ māma yě dōu hěn máng. 我爸爸和我妈妈也都很忙。” kabi.

| Ega | Kesim | |
|--|---------------------|--------------------------------------|
| | Ravish | Fe‘l/Sifat |
| Dīng Lìbō hé Mǎ Dàwéi 丁 力波和 马 大为 | dōu hěn 都 很 | hǎo. 好。 |
| Wǒ hé Lín Nà 我 和 林 娜 | dōu bú tài 都 不 太 | máng. 忙。 |
| Nǐ bàba hé nǐ māma 你 爸爸和你 妈妈 | dōu 都 | shì Běijīng rén ma? 是 北京人 吗? |
| Wáng Xiǎoyún hé Sòng Huá 王 小云 和 宋 华 | yě dōu bù 也 都 不 | xǐhuan chī miàntiáo. 喜 欢 吃 面 条 儿。 |

1-mashq Quyidagi gaplarni “都” ravishini qo‘llab o‘zgartiring.

Masalan Wǒ hěn máng.
我 很 忙。
Tā hěn máng.
她 很 忙。
⇒ Wǒ hé tā dōu hěn máng.
我 和 她 都 很 忙。

- Lín Nà hěn hǎo.
(1) 林 娜 很 好。 ⇒ _____。
- Dīng Lìbō hěn hǎo.
丁 力 波 很 好。 _____。
- Wǒ bú tài máng.
(2) 我 不 太 忙。 ⇒ _____。
- Sòng Huá bú tài máng.
宋 华 不 太 忙。 _____。
- Tā shì Měiguó rén.
(3) 他 是 美 国 人。 ⇒ _____。
- Mǎ Dàwéi shì Měiguó rén.
马 大 为 是 美 国 人。 _____。
- Wǒ māma shì Shànghǎi rén.
(4) 我 妈 妈 是 上 海 人。 ⇒ _____。
- Wǒ bàba shì Shànghǎi rén.
我 爸 爸 是 上 海 人。 _____。

2-mashq So'zlardan gap tuzing.

Masalan wǒmen hǎo hěn dōu Wǒmen dōu hěn hǎo.
我们 好 很 都 → 我们都很好。

(1) máng wǒmen dōu bù
忙 我们 都 不 → _____

(2) dōu bāozi hé jiǎozi hěn hǎochī
都 包子 和 饺子 很 好吃 → _____

(3) dōu wǒ péngyou hé wǒ gāoxìng hěn
都 我 朋友 和 我 高兴 很 → _____

(4) wǒ bàba hé wǒ māma dōu Běijīngrén shì
我 爸爸 和 我 妈妈 都 北京人 是 → _____

(5) diǎnxīn Dīng Lìbō Mǎ Dàwéi dōu xǐhuan chī hé
点心 丁力波 马大为 都 喜欢 吃 和 → _____

四、练习与运用 Amaliy mashg'ulotlar

补充词语 Qo'shimcha so'zlar



2-02-06

| | | | |
|-------------------|--------|----|-------------|
| 1. Zhōngguó | 中国 | AO | Xitoy |
| 2. Wūzībiékèsītǎn | 乌兹别克斯坦 | AO | O'zbekiston |
| 3. Fǎguó | 法国 | AO | Fransiya |
| 4. Déguó | 德国 | AO | Germaniya |
| 5. Jiānádà | 加拿大 | AO | Kanada |
| 6. Yīngguó | 英国 | AO | Angliya |
| 7. Àodàliyà | 澳大利亚 | AO | Avstraliya |
| 8. Éluósī | 俄罗斯 | AO | Rossiya |
| 9. Xībānyá | 西班牙 | AO | Ispaniya |
| 10. Rìběn | 日本 | AO | Yaponiya |
| 11. Tàiguó | 泰国 | AO | Tailand |
| 12. Yīndù | 印度 | AO | Hindiston |

| | | | |
|--------------|-----|----|------------------|
| 13. Āijí | 埃及 | AO | Misr |
| 14. tóngxué | 同学 | O | kursdosh 同学和老师 |
| 15. miànbāo | 面包 | O | non 面包很好吃 |
| 16. hànǎobāo | 汉堡包 | O | gamburger 喜欢吃汉堡包 |
| 17. bǐsàbǐng | 比萨饼 | O | pitsa 汉堡包和比萨饼 |

1 语音练习 Fonetik mashq 2-02-07

Eshiting va o'qing: Quyida berilgan so'zlarni pinyinini yozing va ohang belgisini qo'ying, so'ngra baland ovozda o'qing.

- | | | |
|----------------------|-----------|------------------------|
| ① Meiguo | ② haochi | ③ mifan |
| ④ xihuan | ⑤ jiaozi | ⑥ women |
| ⑦ renshi | ⑧ pengyou | ⑨ Qingwen nin guixing? |
| ⑩ Ni shi na guo ren? | | |

2 会话练习 Suhbat (dialog) mashqlari

Ikki kishilik suhbat: Rasmdagi odamlarning ko'rinishi hamda vaziyatiga asoslanib, dialogni davom ettiring.

1. Ertalabki salomlashish

(1)



(2)



2. Do'stingiz qaysi davlatdan ekanligini so'rang

Nǐ shì _____ rén?
A: 你 是 _____ 人?

Wǒ shì _____ rén.
B: 我 是 _____ 人。

Tā / Tā yě shì rén ma?
A: 他/她也是_____人吗?
Tā / Tā bú shì rén, shì rén.
B: 他/她不是_____人, 是_____人。

3. Berilgan rasm va gaplardan foydalanib do'stingizni tanishtiring.



Zhè shì _____, tā / tā shì rén.
这是_____, 他/她是_____人。
Nà shì _____, tā / tā shì rén.
那是_____, 他/她是_____人。

4. Berilgan rasm va gaplardan foydalanib, oziq-ovqat mahsulotlari haqida gapiring.



bāozi
包子

hànbǎobāo
汉堡包


jiǎozi
饺子

bǐsàbǐng
比萨饼

Zhè shì _____。 Nà shì _____。
这是_____。 那是_____。
Nà shì _____ ma?
那是_____吗?
Nà bú shì _____, nà shì _____。
那不是_____, 那是_____。
Wǒ xǐhuan chī _____ hé _____。
我喜欢吃_____和_____。

5. Quyida berilgan rasmga qarab suhbat quring.

(1)



Nǐ bàba māma zuìjìn zěnmeyàng?

A: 你爸爸妈妈最近怎么样?

Tāmen Nǐ bàba

B: 他们_____。你爸爸

māma ne?

妈妈呢?

Tāmen

A: 他们_____。

(2)



Tā xuéxí shénme?

A: 她学习什么?

Tā

B: 她_____。

Nǐ ne?

A: 你呢?

Wǒ yě

B: 我也_____。

Wǒmen

我们_____。

3 听后复述 Tinglang va gapirib bering



2-02-08

Tinglang va gapiring.

Nín zǎo!

(1) A: 您早!

Nín hǎo!

B: 您好!

Wǒ xìng Dīng, jiào Dīng Lìbō.

A: 我姓丁, 叫丁力波。

Wǒ jiào Sòng Huá. Rènshi nǐ hěn gāoxìng.

B: 我叫宋华。认识你很高兴。

Zhè shì wǒ tóngxué, nǐmen rènshi ma?

(2) A: 这是我同学, 你们认识吗?

Nǐ hǎo! Wǒ jiào Lín Nà. Qǐngwèn, nǐ shì nǎ guó rén?

B: 你好! 我叫林娜。请问, 你是哪国人?

Wǒ jiào Mǎ Dàwéi, wǒ shì Měiguórén. Nǐ yě shì Měiguórén ma?

C: 我叫马大为, 我是美国人。你也是美国人吗?

Wǒ bú shì Měiguórén, wǒ shì Yīngguórén.

B: 我不是美国人,我是英国人。

Qǐngwèn, nǐ shì Zhōngguórén ma?

(3) A: 请问,你是中国人吗?

Wǒ bú shì Zhōngguórén, wǒ shì Jiānádàrén.

B: 我不是中国人,我是加拿大人。

Tāmen ne?

A: 他们呢?

Tāmen yě bú shì Zhōngguórén, tāmen dōu shì Hánguórén.

B: 他们也不是中国人,他们都是韩国人。

4 阅读理解 O'qib tushunib oling



Wǒ jiào Dīng Lìbō, wǒ shì Jiānádàrén. Zhè shì Mǎ Dàwéi, tā shì wǒ péngyou, tā shì Měiguó-
我叫丁力波,我是加拿大人。这是马大为,他是我朋友,他是美国

rén. Nà shì Lín Nà, tā yě shì wǒ péngyou, tā shì Yīngguórén. Wǒ hé Dàwéi. Lín Nà
人。那是林娜,她也是我朋友,她是英国人。我和大为、林娜

dōu xuéxí Hànyǔ.
都学习汉语。

Quyidagi savollarga javob bering:

Dīng Lìbō, Mǎ Dàwéi hé Lín Nà dōu shì nǎ guó rén?

(1) 丁力波、马大为和林娜都是哪国人?

Tāmen dōu xuéxí shénme?

(2) 他们都学习什么?



Wǒ xìng Lín, jiào Lín Nà. Zhè shì Sòng Huá, tā shì wǒ péngyou. Sòng Huá shì Běijīng rén,
我姓林,叫林娜。这是宋华,他是我朋友。宋华是北京人,

xǐhuan chī jiǎozi hé miàntiáor. Wǒ yě xǐhuan chī jiǎozi, jiǎozi hěn hǎochī. Nà shì Chén lǎoshī,
喜欢吃饺子和面条儿。我也喜欢吃饺子,饺子很好吃。那是陈老师,

tā shì wǒmen lǎoshī. Chén lǎoshī shì Shànghǎi rén, tā xǐhuan chī diǎnxīn.
她是我们老师。陈老师是上海人,她喜欢吃点心。

Quyidagi savollarga javob bering:

- Sòng Huá shì nǎ guó rén?
(1) 宋 华 是 哪 国 人?
Sòng Huá xǐhuan chī shénme?
(2) 宋 华 喜 欢 吃 什 么?
Lín Nà xǐhuan chī jiǎozi ma?
(3) 林 娜 喜 欢 吃 饺 子 吗?
Chén lǎoshī shì Běijīng rén ma?
(4) 陈 老 师 是 北 京 人 吗?
Chén lǎoshī xǐhuan chī shénme?
(5) 陈 老 师 喜 欢 吃 什 么?

5 任务与活动 Vazifa va faoliyat

1. Sen ularni bilasanmi?

Kichik guruhlarda ishlash: Sen ularning xitoycha ismlarini o'qiy olasanmi? Kichik guruhlarda talabalar iyerogliflarda yozilgan ismlarni muhokama qiladilar va butun guruhga e'lon qiladilar. Qaysi guruh eng ko'p ism bilishini ko'ramiz.



Kǒngzǐ
孔子
Konfutsiy



Lǐ Bái
李白
Li Bay




Lǚ Xùn
鲁迅
Lu shun



Shāshībǐyà
莎士比亚
Shekspir



Bèiduōfēn
贝多芬
Bethoven



Àiyīnsītǎn
爱因斯坦
Eynshteyn

Tā jiào shénme míngzi? Tā shì nǎ guó rén?
(他叫 什么 名字? 他是哪 国人?)

2. Vazifani bajaring

Quyida xitoy restoranlaridagi asosiy taomlar ro'yxati berilgan. Ikki kishidan iborat kichik guruhlar tuzib, biri restoran ofitsianti, ikkinchisi mijoz rolini ijro etgan holda, suhbatni nihoyasiga yetkazing.



Zhè shì shénme?
A: 这是什么?

B: _____。

Nà shì shénme?
A: 那是什么?

B: _____。

hǎochī ma?
A: _____ 好吃吗?

hé
B: _____ 和 _____

dōu hěn hǎochī. Nǐ yào shénme?
都很好吃。你要什么?

Wǒ yào
A: 我要 _____,

yě yào
也要 _____。

6 学习活动 O'qish faoliyati

Kichik guruhlarda o'rganib o'zlashtirgan kishilik olmoshlari (men, bizlar...)dan foydalanib jadval tuzing va butun guruhga jadval asosida tanishtiring.


7 写作练习 Insho yozish mashqi

1. Quyidagi shakl asosida kichik matn tuzib, unda do'stingizni tanishtiring.

Wǒ péngyou xìng _____ jiào _____ Tā / Tā shì _____ rén, tā / tā
我朋友姓 _____, 叫 _____。他/她是 _____ 人, 他/她

xuéxí
学习 _____。

2. Quyida berilgan rasmga qarab kichik hikoya tuzing. Dadangiz va oyingiz yeyishni yoqtirgan mahsulotlar haqida gapirib bering.



Zhè shì _____, nà shì _____。 Wǒ shì _____ rén, wǒ xǐhuan chī _____ hé
_____, hé _____ hěn hǎochī.

Zhè shì _____, nà shì _____。 Wǒ bàba shì _____ rén, tā xǐhuan chī _____
hé _____, hé _____ hěn hǎochī.

Zhè shì _____, nà shì _____。 Wǒ māma shì _____ rén, tā xǐhuan chī _____
hé _____, hé _____ hěn hǎochī.

五、汉字 Iyerogliflar

1 汉字知识 Iyerogliflarga oid bilimlar

Iyerogliflarning tuzilishi (I)

Xitoy tilida iyerogliflar soda, qo'shma yoki ikki komponentli bo'lib, kelishi mumkindir. Biz bunday iyerogliflarning bir nechta bilan tanishdik, masalan: "yī一", "rén人", "xiǎo小", "mǎ马", "kǒu口" va xakozo. Ikki komponentli esa quyidagilardir "bà爸", "mā妈", "nǐ你", "men们", "nǎ哪", "wèn问" va xakozo.

Ko'plab xitoycha iyerogliflar ikki qismdan iborat. Ikki qismning yozilish tartibi chiziqning yozilish tartibiga mos keladi.

Xitoy iyerogliflarini ikkala tarkibiy qismiga quyidagi uchta umumiy tuzilmalar kiradi:

(1) Chap va o'ng tomonda yozilishi:

| | |
|---|---|
| 1 | 2 |
|---|---|

 masalan: mā 妈 (oyi)

(2) Ustki va pastki qismida yozilishi:

| |
|---|
| 1 |
| 2 |

 masalan: bà 爸 (dada)

(3) Atrofida yozilishi:
















| | |
|---|---|
| 1 | 2 |
|---|---|

 masalan: guó 国 (davlat)

2 汉字偏旁 Iyerogliflarning yon kalitlari

| Iyeroglif kaliti | Nomi | Chiziqklarining yozilish ketma-ketligi | Chiziqlar soni | Misollar | Tushuntirish |
|------------------|-------------|--|----------------|--|--|
| 饣 | shízi páng | ノ 勹 饣 | 3 | 饭 fàn (ovqat) 饼 bǐng (pishiriq) 饿 è (och qolmoq) | Odatda "oziq-ovqat" kabi so'zlarga aloqador |
| 口 | guózi kuàng | 丨 凵 口 | 3 | 国 guó (davlat) 困 kùn (toliqish) | Odatda "davlat", "hudud" kabi so'zlarga aloqador |

3 认写基本汉字 Asosiy iyerogliflarning yozilishi

- (1) 匕  匕
bǐ qadimiy qoshiq turi; xanjar 2 chiziq  
- (2) 又  又
yòu yana 2 chiziq  
- (3) 贝  凵 贝 贝
bèi chig'anoq 4 chiziq  
- (4) 玉  一 二 干 王 玉
yù qirchang'i 5 chiziq  
- (5) 见  凵 贝 见
jiàn ko'rishmoq 4 chiziq  

- | | | | | | | |
|--------|-----------------|-------|-----------------|----------|---|---|
| (6) 米 | 丶 丶 丶 丶 丶 米 米 米 | mǐ | guruch | 6 chiziq |  |  |
| (7) 目 | 丨 冂 月 月 月 目 | mù | ko'z | 5 chiziq |  |  |
| (8) 心 | 丶 心 心 心 | xīn | yurak | 4 chiziq |  |  |
| (9) 上 | 丨 卜 上 | shàng | yuqorida | 3 chiziq |  |  |
| (10) 云 | 一 二 云 云 | yún | bulut | 4 chiziq |  |  |
| (11) 王 | 一 二 干 王 | wáng | qirol, familiya | 4 chiziq | | |

4 认写课文中的汉字 Matndagi iyerogliflarning yozilishi

- (1) 老师 lǎoshī
- 老 → 耂 (耂: 一 + 土 耂) + 匕 6 chiziq
- (2) 朋友 péngyou
- 友 → 𠂆 (𠂆: 一 𠂆) + 又 4 chiziq
- (3) 贵姓 guìxìng
- 贵 → 𠂆 (𠂆: 丶 冂 口 中 𠂆) + 贝 9 chiziq
- (4) 国 guó
- 国 → 囗 + 玉 8 chiziq
- (5) 米饭 mǐfàn
- 饭 → 饣 + 反 7 chiziq

(6) 看 kàn

看 → 手 (手: 一 = 三手) + 目

9 chiziq

六、文化知识 Madaniyatga oid bilimlar

Xitoy tilidagi lugʻatlar

Bugungi Kunda Xitoyda “Xitoy iyeroglif lugʻat” lari odatiy ishlatiladigan lugʻatlar hisoblanadi. Mazkur lugʻat oʻzida 13000dan iyeroglifni oʻzida jamlagan boʻlib, xalq orasida ommalshib ketgan. Yana keng tarqalgan lugʻatlardan biri “Zamonaviy Xitoy tili lugʻati” hisoblanadi. Bu lugʻatda 69000dan oʻriq soʻzlar jamlangan boʻlib, chet elliklar uchun xitoy tilini va madaniyatini oʻrganishda juda qulay vosita hisoblanadi. Mazkur lugʻatlardan foydalanishning quyidagi usullari mavjud: birinchidan, alifbo usuli orqali soʻzlarni talaffuzidan izlash. Ikkinchidan, imlo chiziq orqali izlab topish. Uchinchidan, kalitlar yordamida izlab topish. Kalitlar vositasida kalitlarning iyeroglifning oʻng yoki chap tomonida kelishiga qarab qidiriladi.



Bugungi axborotlashuv asrida elektron lugʻatlar ham ommalshib ketgan. Masalan: “baidu ensiklopedik lugʻati” bundan mustasno emas. Mazkur lugʻat onlayn tizimida faoliyat olib boradi. Bu keng jamoatchilik uchun qulay va osonlashtirilgan xitoy tili axborotlar jamlanmasi hisoblanadi. Agarda biror-bir tabiatga aloqador jonzotlar haqida maʼlumot olmoqchi

boʻlsangiz. Izlash tugmachasi orqali osongina uning nomi yoziladi. Masalan, panda ayigʻi haqida batafsil maʼlumotlarni olish mumkin.



七、自我评估 Oʻz-oʻzini baholash

Men xitoy tilida quyidagi ishlarni qila olaman:

- Men erta tongda qanday soʻrashishni bilaman.
- Men mulozamat bilan suhbatdoshimdan uning familiyasini soʻray olaman.
- Men oʻzga kishilardan qaysi davlatdan ekanligini soʻray olaman.

- Men boshqalar bilan xayrlashishni bilaman.
- Men boshqalarga o'zinning do'stimni tanishtira olaman.
- Men narsa va mahsulotlarni taniy olaman.



趣味汉语 Qiziqarli xitoy tili

Xitoyliklarning bir-birlari bilan muomala qilish jarayonidagi iboralar



wēixiào
微笑
tabassum qilish



diǎntóu
点头
bosh qimirlatmoq



zhāoshǒu
招手
qo'l silkitmoq



wòshǒu
握手
qo'l berib korishmoq



bàoquán
抱拳
hurmat belgisi sifatida ikki
qo'lni birga jiplashfirish



jūgōng
鞠躬
ta'zim qilmoq

3

Nǐmen jiā yǒu jǐ kǒu rén
你们家有几口人

Sizlarning oilangizda nechchi kishi bor

Oila xitoyliklarning do'stlari bilan ko'rishib qolganda muhokama qiladigan muhim mavzulardan biri. Siz xitoylik do'stingiz bilan birga bo'lgan paytingizda salomlashishdan tashqari, agar oila haqida gaplashsangiz, sizning munosabatingiz yanada yaqinlashadi. Kelinglar avval Lin Na va Wang Xiaoyunning suhbatini eshitamiz, keyin esa Lin Na va Song Hua bilan bir xitoylik do'stimizning uyiga mehmonga borib, oila haqida xitoy tilida qanday gaplashilishini ko'ramiz.

一、热身 Dastlabki mashqlar

1 思考 Mulohaza qilmoq

Quyidagi savollar yuzasidan fikr yuriting:

- (1) Sening aka-ukang yoki opa-singling bormi?
- (2) Sizning mamlakatingizda odamlar boshqalardan yoshini tez-tez so'rab turadilarmi?
- (3) Sizning mamlakatingizda mehmonlarni qanday kutib olishadi?

2 活动 Faoliyat

Rasmga qarang, mazkur darsning yangi so'zlaridan mos kelgan so'zlarni toping.



(1) _____

a. 钢琴



(2) _____

b. 医生



(3) _____

c. 咖啡



(4) _____

d. 狗

二、课文 Matn

(一)  2-03-01



(Lin Na va Wang Xiaoyunla rasmga qaramoqda.)

Lín Nà: Nǐmen jiā yǒu jǐ kǒu rén? ①

林娜：你们家有几口人？

问家庭

Oila a'zolari haqida so'rash

Wáng Xiǎoyún: Wǒmen jiā yǒu sì kǒu rén. Nǐ kàn, zhè shì wǒmen jiā de

王小云：我们家有四口人。你看，这是我们家的

zhàopiàn.

照片。

Lín Nà: Nǐ bàba māma zuò shénme gōngzuò? ②

林娜：你爸爸妈妈做什么工作？

问职业

Kasb haqida so'rash

Wáng Xiǎoyún: Wǒ bàba shì yīshēng, māma shì lǎoshī.

王小云：我爸爸是医生，妈妈是老师。

Lín Nà: Zhè shì nǐ dìdi ma?

林娜：这是你弟弟吗？

Wáng Xiǎoyún: Zhè bú shì wǒ dìdi, zhè shì wǒ gēge. Lín Nà, nǐmen jiā
王小云: 这不是我弟弟, 这是我哥哥。林娜, 你们家

yǒu jǐ kǒu rén?
有几口人?

Lín Nà: Wǒmen jiā yí gòng yǒu liù kǒu rén: māma, yí gè gēge,
林娜: 我们家一共有六口人: 妈妈、一个哥哥、

liǎng gè jiějie hé wǒ, hái yǒu Bèibei.
两个姐姐和我, 还有贝贝。

Wáng Xiǎoyún: Bèibei shì shéi? Shì nǐ mèimei ma?
王小云: 贝贝是谁? 是你妹妹吗?

Lín Nà: Wǒ méi yǒu mèimei. Bèibei shì wǒ de xiǎogǒu.
林娜: 我没有妹妹。贝贝是我的小狗。

Wáng Xiǎoyún: Xiǎogǒu yě shì yì kǒu rén ma?
王小云: 小狗也是一口人吗?

生词 Yangi so'zlar



2-03-02

| | | | |
|-------------|----|-----|---|
| 1. jiā | 家 | O | oila, uy 我家 你们家 |
| 2. yǒu | 有 | F | bor 有朋友 有点心 |
| 3. jǐ | 几 | SO | nechta |
| 4. kǒu | 口 | HS | insonlarga va oila a'zolaga qo'llaniladigan hisob so'z 几口人 六口人 |
| 5. de | 的 | GV | kelishik qo'shimchisi 我的饺子 爸爸的米饭 老师的姓 |
| 6. zhàopiàn | 照片 | O | rasm 看照片 有照片 我们家的照片 |
| 7. zuò | 做 | F | qilmoq 做点心 做面条儿 |
| 8. gōngzuò | 工作 | F/O | ishlamoq; ish 做工作 工作很忙 |
| 9. yīshēng | 医生 | O | doktor 我爸爸是医生 |
| 10. dìdi | 弟弟 | O | uka 我弟弟 弟弟的老师 |

| | | | |
|------------|----|-----|------------------------|
| 11. gēge | 哥哥 | O | aka 好哥哥 有哥哥 |
| 12. yígòng | 一共 | R | jami 一共几口人 |
| 13. gè | 个 | HS | ta, dona 一个人 一个包子 几个朋友 |
| 14. liǎng | 两 | Son | ikki 两个老师 两人口 两个饺子 |
| 15. jiějie | 姐姐 | O | opa 两个姐姐 我姐姐 姐姐的朋友 |
| 16. hái | 还 | R | yana 还有 还喜欢饺子 还吃点心 |
| 17. shéi | 谁 | SO | kim 还有谁 他是谁 谁的照片 |
| 18. mèimei | 妹妹 | O | singil 我妹妹 姐姐和妹妹 一个妹妹 |
| 19. méi | 没 | R | yoq 没有 没有朋友 没有人 |
| 20. gǒu | 狗 | O | it 小狗 我的小狗 |
| 21. Bèibei | 贝贝 | AO | kuchukchanning ismi |

注释 Izohlar

① Nǐmen jiā yǒu jǐ kǒu rén?

Sizlarning oilangizda nechki kishi bor?

Agar kishilik olmoshlaridan keyin joy nomlari kelsa, og‘zakida ko‘pincha ular ham kishilik olmoshlariga tegishli hisoblanadi. Masalan: “nǐmen jiā 你们家”, “wǒmen xuéxiào 我们学校” (bizning maktab), “wǒmen guójiā 我们国家” (bizning davlat).

② Nǐ bàba māma zuò shénme gōngzuò?

Sening ota – onang nima ish qiladi (kasbi nima)?

“zuò shénme gōngzuò 做什么工作” biror shaxsning kasbini so‘rashda qo‘llaniladi. Masalan: “Nǐ zuò shénme gōngzuò? 你做什么工作?”, “Nǐ bàba zuò shénme gōngzuò? 你爸爸做什么工作?” Javobda “shì 是” ga kasb nomini qo‘shib aytiladi, masalan: “Wǒ shì lǎoshī. 我是老师.”, “Wǒ bàba shì yīshēng. 我爸爸是医生.”.

(二)  2-03-03



(Dam olish kuni, Lin Na va Song Hua, Lu Yuping uyiga o‘ynagani borishdi.)

Lù Yǔpíng: Nǐmen hǎo! Qǐng jìn!
陆雨平: 你们好! 请进!

Lín Nà: Nín hǎo! Nǐmen jiā zhēn piàoliang! ①
林娜: 您好! 你们家真漂亮!

Lù Yǔpíng: Xièxie. Qǐng zuò. Nǐmen hē shénme? Wǒmen jiā yǒu chá
陆雨平: 谢谢。请坐。你们喝什么? 我们家有茶

hé kāfēi.
和咖啡。

招待客人

Mehmon kutib olish

Sòng Huá: Wǒ hē kāfēi.
宋华: 我喝咖啡。

Lín Nà: Wǒ yào chá.
林娜: 我要茶。

(Song Hua devordagi rasmga qarayapti.)

Sòng Huá: Zhè zhāng zhàopiàn zhēn piàoliang! Zhè shì nǐ nǚ’ér ma?
宋华: 这张照片真漂亮! 这是你女儿吗?

Lù Yǔpíng: Shì. Zhè shì wǒ nǚ'ér.
陆雨平: 是。这是我女儿。

Sòng Huá: Nǐ nǚ'ér jīnnián jǐ suì? ②
宋华: 你女儿今年几岁?

问年龄 (1)
Biron insondan yoshini
so'rash (1)

Lù Yǔpíng: Wǔ suì. Jīntiān tā yǒu gāngqínkè, ③ bú zài jiā.
陆雨平: 五岁。今天她有钢琴课, 不在家。

Lín Nà: Zhōngguó de hái'izi zhēn máng!
林娜: 中国的孩子真忙!

Lù Yǔpíng: Shì a. ④ Wǎnshang tā hái yǒu Yīngyǔkè.
陆雨平: 是啊。晚上她还有英语课。

生词 Yangi so'zlar



2-03-04

| | | | |
|--------------|----|-----|---|
| 1. zhēn | 真 | R/S | juda/haqiqiy 真好 真忙 真高兴 |
| 2. piàoliang | 漂亮 | S | chiroyli 真漂亮 很漂亮 |
| 3. hē | 喝 | F | ichmoq 喝什么 |
| 4. chá | 茶 | O | choy 喝茶 喜欢喝茶 茶很好 |
| 5. kāfēi | 咖啡 | O | kofe 喝咖啡 喜欢喝咖啡 |
| 6. zhāng | 张 | HS | yupqa, yasi narsalar uchun hisob so'zi 一张照片 |
| 7. nǚ'ér | 女儿 | O | qiz farzand 我女儿 女儿很漂亮 |
| nǚ | 女 | S | ayol |
| 8. jīnnián | 今年 | O | bu yil 今年很忙 |
| nián | 年 | O | yil 2018年 2020年 |
| 9. suì | 岁 | HS | yosh 五岁 九岁 几岁 |
| 10. jīntiān | 今天 | O | bugun 今天不忙 |
| tiān | 天 | O | kun 一天 两天 |
| 11. gāngqín | 钢琴 | O | pianino 学钢琴 |

| | | | |
|----------------|-----|----|---------------------------|
| 12. kè | 课 | O | dars 钢琴课 汉语课 没有课 |
| 13. hái zi | 孩子 | O | bola 中国孩子 一个孩子 |
| 14. a | 啊 | Y | voy, uh 他真忙啊 |
| 15. wǎn shàng | 晚上 | O | kechqurun 晚上工作 晚上有课 |
| wǎn | 晚 | S | kech 很晚 不晚 |
| 16. Yīng yǔ | 英语 | O | ingliz tili 学习英语 英语课 |
| 17. Zhōng guó | 中国 | AO | Xitoy |
| 18. Lù Yǔ píng | 陆雨平 | AO | Xitoy jurnalistining ismi |

注释 Izohlar

① Nǐ men jiā zhēn piàoliang!

Sizning uyingiz judayam chiroyli!

“zhēn 真” undan so‘ng sifat qo‘yilishi kerak, “真” taajubni ifodalaydi.

② Nǐ nǚ’ér jīnnián jǐ suì?

Sizning qizingiz bu yil necha yoshda?

“Jīnnián jǐ suì? 今年几岁?” ko‘pincha kichik yoshdagi bolaning yoshini so‘rashda qo‘llaniladi.

③ Jīntiān tā yǒu gāngqínkè.

Bugun uning pianino darsi bor.

Gapda ot so‘z tukumiga mansub so‘zlar boshqa ot so‘z turkumiga mansub bo‘lgan so‘zlardan oldin qo‘yilsa, aniqlovchi vazifasida keladi. Masalan, “Běijīngrén 北京人”, “gāngqínkè 钢琴课”, “Yīngyǔkè 英语课” kabi.

④ Shì a.

Ha.

“a 啊” gap oxirida qo‘yiladi, tasdiqni ifodalovchi yuklama vazifasida qo‘llaniladi.

三、语言点 *Tayanch so'zlar*1 核心句 *Asosiy qo'llanilgan jumlar*

2-03-05

- | | |
|-----------------------------------|-----------------------------|
| 1. Nǐmen jiā yǒu jǐ kǒu rén? | 6. Zhè zhāng zhàopiàn zhēn |
| 2. Wǒmen jiā yí gòng yǒu liù | piàoliang! |
| kǒu rén. | 7. Nǐ bàba māma zuò shénme |
| 3. Wǒ méi yǒu mèimei. | gōngzuò? |
| 4. Bèibei shì shéi? | 8. Nǐ nǚ'ér jīnnián jǐ suì? |
| 5. Zhè shì wǒmen jiā de zhàopiàn. | 9. Wǎnshang tā hái yǒu |
| | Yīngyǔkè. |

2 语法 *Grammatika*

1. “有”字句 “yǒu 有” li gaplar

Asosiy kesim “有” fe’lli gaplar egalikni bildiradi. Bo’lishsiz shakli “méi 没” ravishini “有” dan oldin joylashtirish bilan yasaladi.

| Ega | Kesim | | |
|------------------|---------------------|----------------------|----------------|
| | (没) 有 | To’ldiruvchi | Yordamchi so‘z |
| Wǒ 我 | yǒu 有 | yí gè gēge. 一个哥哥。 | |
| Wǒmen jiā 我们家 | yǒu 有 | sì kǒu rén. 四口人。 | |
| Tā 她 | méi yǒu 没有 | mèimei. 妹妹。 | |
| Dīng Lìbō 丁力波 | méi yǒu 没有 | kāfēi. 咖啡。 | |
| Tā nǚ'ér 他女儿 | jīntiān yǒu 今天 有 | Yīngyǔkè 英语课 | ma? 吗? |
| Nǐmen jiā 你们家 | yǒu 有 | xiǎogǒu 小狗 | ma? 吗? |

Agarda “有” li gaplarda ega korxon, punkt yoki joy bildiradigan otlar bilan ifodalangan bo‘lsa, bu turdagi “有” li gaplar o‘zbek tilidagi “...da...bor” mavjudlik gaplarga o‘xshashdir.

1-mashq So‘zlarni o‘zaro almashtirib, suhbatni nihoyasiga yetkazing.

Nǐ yǒu jiějie ma?
(1) A: 你有姐姐吗?

Wǒ méi yǒu _____, wǒ yǒu _____.
B: 我 没有 _____, 我有 _____。

gēge
哥哥
dìdi
弟弟
mèimei
妹妹

Nǐ yǒu Měiguó péngyou ma?
(2) A: 你有 美国 朋友 吗?

Wǒ méi yǒu _____ Nǐ ne?
B: 我 没有 _____。你 呢?

Wǒ yě méi yǒu _____.
A: 我 也 没有 _____。

Zhōngguó péngyou
中国 朋友
gāngqín lǎoshī
钢琴 老师
Yīngyǔ lǎoshī
英语 老师

Nǐmen jiā yǒu chá ma?
(3) A: 你们 家 有 茶 吗?

Méi yǒu, wǒmen jiā yǒu _____.
B: 没 有, 我 们 家 有 _____。

kāfēi jiǎozi
咖啡 饺子
diǎnxīn bāozi
点心 包子

2-mashq Namunaga qarab, quyida berilgan gaplarni inkor va so‘roq shakliga o‘zgartiring.

Masalan Wǒ yǒu gēge. Wǒ méi yǒu gēge. Nǐ yǒu gēge ma?
我 有 哥哥。 → 我 没有 哥哥。 → 你 有 哥哥 吗?

Tāmen yǒu hái zi.
(1) 他 们 有 孩 子。 → _____。 → _____?

Xiǎoyún wǎnshang yǒu Yīngyǔkè.
(2) 小 云 晚 上 有 英 语 课。 → _____。 → _____?

Wǒmen jiā yǒu xiǎogǒu.
(3) 我 们 家 有 小 狗。 → _____。 → _____?

Lín Nà jiā yǒu Bèibei de zhàopiàn.
(4) 林 娜 家 有 贝 贝 的 照 片。 → _____。 → _____?

2. 表领属关系的定语 Egalik munosobatlarni bildiradigan aniqlovchilar

Xitoy tilida aniqlovchilar aniqlanmishdan oldin turadi. Olmosh yoki ot egalik aniqlovchi vazifasida kelgan paytda, ko‘pincha “de 的” yordamchi so‘zi qo‘shilishi kerak bo‘ladi.

| Ot (so‘z birikma) / Olmosh | + 的 | + Ot |
|-------------------------------|---------|----------------|
| wǒ 我 | de 的 | gōngzuò 工作 |
| wǒmen jiā 我们家 | de 的 | zhàopiàn 照片 |
| Lù Yǔpíng 陆雨平 | de 的 | nǚ’ér 女儿 |

Aniqlovchi kishilik olmoshlari bilan ifodalanganda, aniqlanmish qon-qarindoshlik munosobatlarni yoki korxonona nomlarini bildiradigan otlar bilan ifodalanganda, aniqlovchii va aniqlanmish o‘rtasidagi “的” ni tushurib qoldirsa bo‘ladi. Masalan: “wǒ māma 我妈妈”, “nǐ nǚ’ér 你女儿”, “tāmen jiā 他们家”.

1-mashq So‘zlarni o‘zaro almashtirib, suhbatni nihoyasiga yetkazing.

Zhè shì shéi de kāfēi?
(1) A: 这是谁的咖啡?

Zhè shì wǒ de kāfēi.
B: 这是我的咖啡。

nín de
您的
dìdi de
弟弟的
tāmen de
他们的

Nǐ yǒu Bèibei de zhàopiàn ma?
(2) A: 你有贝贝的照片吗?

Wǒ méi yǒu Bèibei de zhàopiàn.
B: 我没有贝贝的照片。

Lín Nà de
林娜的
tā nǚ’ér de
他女儿的
lǎoshī de
老师的

Shéi shì yīshēng?
(3) A: 谁是医生?

Wǒ māma shì yīshēng.
B: 我妈妈是医生。

tā bàba
他爸爸
tā gēge
她哥哥
wǒ dìdi
我弟弟

2-mashq Jumladagi gapni qavs ichidagi so'zlar yordamida yakunlang.

Masalan Zhè shì wǒ de gǒu. de gǒu wǒ
这是我的狗。(的 狗 我)

(1) Tā bú shì _____。 (mèimei Wáng Xiǎoyún de)
她不是_____。(妹妹 王 小云 的)

(2) Nǐ shì _____ ma? (péngyou de Lín Nà)
你是_____吗? (朋友 的 林娜)

(3) Wǒ xǐhuan _____。 (míngzi de nǐ)
我 喜欢_____。(名字 的 你)

(4) Nà shì _____。 (zhàopiàn de wǒmen jiā)
那是_____。(照片 的 我们家)

3. 数量词做定语 Miqdoriy birlikma aniqlovchi vazifasida

Hozirgi zamon xitoy tilida, son odatda ot oldida aniqlovchi bo'la olmaydi, o'rtasida albatta hisob so'zi qo'shilishi shart. Hamma otlar o'zini hisob so'ziga egadir.

| Son | + | Hisob so'z | + | Ot |
|------------|---|------------|---|----------------|
| liù 六 | | kǒu 口 | | rén 人 |
| liǎng 两 | | gè 个 | | jiějie 姐姐 |
| yí 一 | | gè 个 | | péngyou 朋友 |
| sān 三 | | zhāng 张 | | zhàopiàn 照片 |

“个” eng ko'p ishlatiladigan hisob so'zidir, juda ko'p odamlarga, narsalarga, korxonalariga va boshqa otlarga ishlatish mumkin (neytral ohangda o'qiladi). “张” ko'pincha qog'oz, fotokartochka, tashrif qog'ozi va boshqa yuzi tekis predmetlarni bildiradigan otlar oldida ishlatiladi. “口” hisob so'zi “人” qo'shilgan paytda (“wǔ kǒu rén 五口人”) faqat oila a'zolarini miqdorini ifodalash uchun ishlatiladi, oddiy holatlarda “个” ishlatiladi. Masalan: “Wǒmen bān yǒu shí gè rén. 我们班有十个人。”, “*Wǒmen bān yǒu shí kǒu rén. 我们班有十口人。” deb bo'lmaydi.

E'tibor bering:

“zhè 这” va “nà 那” ko'rsatish olmoshlari aniqlovchi vazifasida kelsa, izohlovchi ot so'z turkumiga mansub so'zdan oldin hisob so'z qo'yilishi kerak.

| Ko'rsatish olmoshi | + | Hisob so'z | + | Ot |
|--------------------|---|------------|---|----------------|
| zhè 这 | | zhāng 张 | | zhàopiàn 照片 |
| nà 那 | | gè 个 | | péngyou 朋友 |

1-mashq So'zlarni o'zaro almashtirib, suhbatni nihoyasiga yetkazing.

Nǐmen jiā yǒu jǐ kǒu rén?
(1) A: 你们家有几口人?

Wǒmen jiā yǒu liù kǒu rén.
B: 我们家有六口人。

sān kǒu rén
三口人
wǔ kǒu rén
五口人
qī kǒu rén
七口人

Tāmen yǒu jǐ gè hái zi?
(2) A: 他们有几个孩子?

Tāmen yǒu yí gè hái zi.
B: 他们有一个孩子。

liǎng gè hái zi
两个孩子
sān gè hái zi
三个孩子
sì gè hái zi
四个孩子

Nǐ yǒu jǐ zhāng zhàopiàn?
(3) A: 你有几张照片?

Wǒ yǒu liù zhāng zhàopiàn.
B: 我有六张照片。

bā zhāng zhàopiàn
八张 照片
jiǔ zhāng zhàopiàn
九张 照片
shí zhāng zhàopiàn
十张 照片

2-mashq Berilgan raqamlarga asoslanib, gaplarni tartibga keltiring.

Wǒ yǒu _____ Bèibei de zhàopiàn.
(1) 我有_____ 贝贝的 照片。(1)

Wáng Xiǎoyún jiā yǒu _____ rén.
(2) 王 小云 家有_____ 人。(4)

Tā yǒu _____ gēge.
(3) 她有_____ 哥哥。(2)

Mǎ Dàwéi yǒu _____ Zhōngguó péngyou.
(4) 马大为有_____ 中国 朋友。(3)

3-mashq So'zlarni o'zaro almashtirib, suhbatni nihoyasiga yetkazing.

Zhè zhāng zhàopiàn zěnmeyàng?
A: 这 张 照片 怎么样?

Zhè zhāng zhàopiàn hěn piàoliang.
B: 这 张 照片 很 漂亮。

| | |
|------------|-----------|
| háizi gè | máng |
| 孩子 (个) | 忙 |
| lǎoshī gè | piàoliang |
| 老师 (个) | 漂亮 |
| bāozi gè | hǎochī |
| 包子 (个) | 好吃 |
| gōngzuò gè | hǎo |
| 工作 (个) | 好 |

